

## Oldi-sotdi OFERTA-SHARTNOMASI

Toshkent sh.

Mazkur shartnoma qayd raqamini olgan va O‘zbekiston Respublikasi (keyinchalik O‘zR) Fuqarolik kodeksining 369, 370 va 365-moddalariga muvofiq albatta uning shartlarini qabul qilgan har qanday jismoniy shaxslarga Sotuvchining katalogida ko‘rsatilgan tovarlarni sotishga Ustav asosida harakat qiladigan Bosh direktor Gafarova Anife Xalilovna nomidan **“ORIFLAME” Xorijiy korxonada shakllidagi Mas’uliyati cheklangan jamiyatining**, keyinchalik **"Sotuvchi"** deb nomlanadi, rasmiy taklifi (ommaviy oferta) hisoblanadi.

Mazkur Oferta-shartnomasining matni quyida keltirilgan. O‘zR Fuqarolik kodeksining 369-moddasi 2 qismiga muvofiq, quyida bayon etilgan shartlarni qabul qilgan holatda, ushbu ofertani akseptini amalga oshiruvchi jismoniy shaxs Xaridor bo‘lib hisoblanadi (O‘zR Fuqarolik kodeksining 370-moddasi 4 qismiga muvofiq, ofertaning aksepti ofertada bayon etilgan shartlarda Shartnoma tuzishda teng kuchga ega).

Akseptning chaqirib olinishi O‘zR Fuqarolik kodeksining 371-moddasiga asosan amalga oshirilishi mumkin.

### 1-modda. Atamalar va Qoidalar:

**Sotuvchi** - O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ro‘yxatdan o‘tgan va harakat qiladigan **“ORIFLAME” Xorijiy korxonada shakllidagi Mas’uliyati cheklangan jamiyat**, yuridik va haqiqiy manzili: Toshkent shahri, 100 084, Yunusobod tumani, Amir Temur ko‘chasi, 88a-uy (A.Temur va KXAY ko‘chalarining kesishgan joyi)

**Shartnoma** - Sotuvchi va Xaridorning o‘zaro munosabatlari asosini shakllantiruvchi va tomonlarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish Siyosati va chegirmalar to‘g‘risidagi Nizom bilan birgalikda mazkur oldi-sotdi oferta-shartnomasi.

**Xaridor** - Tovarni bir marta xarid qilishga Sotuvchi bilan Shartnoma tuzgan har qanday jismoniy shaxs.

**Ro‘yxatga olish** - mahsulot yangiliklari, o‘tkaziladigan aksiyalar, chegirmalar taqdim etilishi va shunga o‘xshashlar haqida Xaridorni xabardor qilish maqsadida Sotuvchining axborot bazasiga Xaridor to‘g‘risidagi ma‘lumotni kiritish va unga qayd raqamini berish.

**Qayd raqami** - mazkur shartnoma tuzilishida jismoniy shaxslarga **“ORIFLAME” XK MChJ** tomonidan beriladigan noyob shaxsiy identifikatsion raqam, u Orisales tizimida ma‘lum jismoniy shaxsga tegishli bo‘lgan ma‘lumotlar haqida yozuvlarni amalga oshirishga imkon beruvchi ketma-ket raqamli simvollar ko‘rinishida ifodalanadi. Qayd raqami bo‘yicha jismoniy shaxs Orisales tizimida identifikatsiya qilinadi. Qayd raqami jismoniy shaxs va **“ORIFLAME” XK MChJ** o‘rtasida mavjud bo‘lgan har qanday shartnomalar bo‘yicha o‘zaro huquqlar va majburiyatlarining ma‘lumotlarini aks ettiradi.

**Yukxati** - yukxati/hisob raqami yoki har qanday boshqa hujjat, unga muvofiq tovar Xaridorga beriladi, unda beriladigan Tovarning ro‘yxati, Tovarning berilgan muddati, o‘zbek so‘mida xaridning umumiy summasi, Xaridorning vaqtida berilgan raqami (Qayd raqami) va boshqa zarur rekvizitlar ko‘rsatiladi.

**Xaridorning shaxsiy ma‘lumotlari** - Xaridorning familiyasi, ismi, otasining ismi, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarning raqami, ko‘rsatilgan hujjatning berilgan vaqti va uni bergan organ haqidagi ma‘lumotlar; STIR. Ommaviy shaxsiy ma‘lumotlar: familiya, ism, otasining ismi; E-mail; pochta manzili (kontaktlar uchun), uyali telefon raqami, qayd raqami.

Mazkur bo‘limda ko‘rsatib o‘tilmagan barcha atamalarni tomonlar ularning Umumiy qoidalari va shartlariga (Shartnomaga 1-ilova) va shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish Siyosati bilan belgilangan mohiyatiga muvofiq qabul qiladilar va talqin qiladilar.

### 2-modda. Shartnomaning predmeti.

2.1. Shartnomaga muvofiq Sotuvchi Xaridorning buyurtmalari asosida unga mavjud assortiment va miqdorga muvofiq, Oriflame Mahsulotlarini (keyinchalik "Tovar" deb yuritiladi) sotish majburiyatini oladi, Xaridor esa buyurtma qilingan Tovarni qabul qilish va uni Shartnoma shartlari asosida to‘lash majburiyatini oladi.

2.2. Xaridor tovarni chakana yoki ulgurji shaklda (do‘konlar tarmog‘ida va bozorlarda) sotish va/yoki namoyish etish huquqiga ega emas.

### 3-modda. Tovarni sotish tartibi. Shartnomaning narxi va Hisob-kitoblarning tartibi. Tomonlarning majburiyatlari.

3.1. Buyurtmani rasmiylashtirish, olish, to‘lash, shuningdek uni rad etish yoki qaytarish tartibi Umumiy qoidalar va shartlar bilan belgilanadi.

3.2. Sotuvchining Tovarni sotish va yetkazib berish bo‘yicha barcha majburiyatlari O‘zbekiston Respublikasining hududi bilan cheklanadi.

3.3. Tovarning narxi Sotuvchi tomonidan Sotuvchining buyurtma rasmiylashtiriladigan katalog uchun amalda bo‘lgan preyskurantida (prays-varaqasida) belgilanadi. Narxni shakllantirish tartibi Umumiy qoidalar va shartlarning "Narxlar va To‘lov" 4B-bo‘limiga muvofiq belgilanadi. Xaridor Tovarni qabul qilib olishga qadar to‘lash majburiyatini oladi.

3.4. Sotuvchi Tovar xarid qilinishida Xaridorga chegirma taqdim etish huquqiga ega. Chegirma chegirmalar to‘g‘risidagi ichki Nizomga muvofiq shakllantiriladi.

3.5. Sotuvchi tomonidan Xaridorga xizmat ko‘rsatilganida servis haqi olinadi, uning miqdori Sotuvchi tomonidan belgilanadi. Servis haqining miqdori buyurtmaning umumiy qiymatiga, yetkazib berishning turiga, yetkazib berish joyining masofasiga bog‘liq.

3.6. Sotuvchi Xaridorni sotiladigan tovarlarning assortimenti haqida tovar kataloglari, bukletlar, varaqa va boshqalarni jo‘natish va boshqa tarzda tarqatish yo‘li bilan xabardor qiladi. Tarqatishning muntazamligi va tartibi Sotuvchining havolasiga ko‘ra belgilanadi. Xaridorlarni xabardor qilish uchun mazkur bandga muvofiq ishlatilayotgan kataloglar, bukletlar, varaqalarning qiymati Tovarning preyskurant qiymatiga kiritiladi, bu holda tarqatish Xaridordan qo‘shimcha to‘lov olinmasdan amalga oshiriladi.

3.7. Agar Xaridor belgilangan muddatda sotib olingan Tovar qiymatini to‘lamasa, Sotuvchi Xaridorning qarzini boshqa shaxsga berish yoki sotish huquqiga ega.

#### **4-modda. Tomonlarning majburiyatlari.**

4.1. Tomonlar mazkur Shartnoma yuzasidan o'zlarining zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmasligi, shuningdek Tomonlar zimmasiga Umumiy qoidalar va Shartlarga muvofiq yuklatilgan majburiyatlarni bajarmasligi uchun javobgar hisoblanadilar. Xaridor ham Xaridorning boshqa ichki tartiblari va qoidalariga muvofiq o'ziga olgan majburiyatlarini bajarmaganligi uchun shu tarzda javobgar hisoblanadi. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni Tomonlardan biri bajarmaganligi yoki tegishli ravishda bajarmaganligi holatida, aybdor Tomon jabrlangan Tomonga majburiyatlarni bajarmaganligi yoki tegishli ravishda bajarmaganligidan yetkazilgan hujjatda tasdiqlangan zararni O'zR amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda qoplab berishi shart. Bilvosita zararlar yoki boy berilgan foyda qoplanilmaydi.

4.2. To'lov kechiktirilganligi uchun Xaridor Sotuvchiga Sotuvchi tomonidan yozma shaklda o'rnatilgan jarimani to'laydi. Jarimani hisoblash tamoyili Sotuvchi tomonidan belgilanadi va Tovarni berishga bo'lgan yukxati yoki boshqa hujjatlarda ko'rsatiladi.

4.3. Sotuvchining saytidagi shaxsiy kabinetga kirish uchun qayd raqami va parolni uchinchi shaxslarga berishidan kelib chiqqan barcha oqibatlar uchun Xaridor javobgar hisoblanadi. Xaridorning saytida Xaridorning qayd raqami va parolidan foydalanib amalga oshirilgan barcha buyurtmalar, Xaridor tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanadi. Xaridor Sotuvchi oldida mazkur buyurtmalarni joylashtirganligi uchun, shu jumladan ularning qiymatini to'lash bo'yicha javobgar hisoblanadi.

#### **5-modda. Shartnomaning boshqa shartlari.**

5.1. Mazkur Shartnoma Sotuvchi uchun u tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi. Xaridor uchun mazkur Shartnoma Xaridor tomonidan mazkur Shartnomaning shartlari so'zsiz qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi. Mazkur Shartnomani qabul qilinishi shaxsan Xaridor tomonidan yoki ishonchnoma bilan uning vakili tomonidan Tovarga bo'lgan birinchi yukxatini imzolanihi hisoblanadi. Birinchi yukxati bo'yicha Tovar olinishi paytida Xaridor Sotuvchiga shaxsini aniqlash uchun pasportning aslini taqdim etishga majbur. Shartnomani qabul qilishning o'rnatilgan tartibidan qat'iy nazar, har qanday shikoyatlar Sotuvchi tomonidan Xaridor tomonidan imzolangan yukxati-hisobini nusxasini taqdim etish sharti bilan qabul qilinadi, u mavjud bo'lmaganida - Xaridor tomonidan imzolangan mazkur Shartnomaning nusxasini.

5.2. Sotuvchi mazkur Shartnomaning shartlarini bir tomonlama tartibda o'zgartirish huquqiga ega. O'zgartirilgan Shartnoma har qanday erishimli usul bilan Xaridorning e'tiboriga yetkaziladi: elektron pochta, SMS orqali, muvofiq ma'lumotni Sotuvchining [www.oriflame.uz](http://www.oriflame.uz) saytida joylashtirish yo'li bilan. Xabardor qilishning bunday tartibi Xaridor ma'lumotdan tanishganligidan qat'iy nazar o'rnatilgan tartibda deb tan olinadi. Shartnomaning yangi tahriri u saytda nashr etilgan kundan boshlab kuchga kiradi. Xaridor Shartnomaning shu tarzda o'zgartirilgan shartlari bilan rozi bo'lmagan holatlarda, u Sotuvchini yozma ravishda xabardor qilib, mazkur Shartnoma bir tomonlama darhol bekor qilish huquqiga ega.

5.3. Shartnoma belgilanmagan muddatga tuzilgan va har qaysi Tomondan bir tomonlama tartibda boshqa tomonni bekor qilishdan 5 (besh) kun oldin xabardor qilishning har qanday usuli: elektron pochta orqali, mazkur shartnoma ko'rsatilgan manzil bo'yicha, Sotuvchining [www.oriflame.uz](http://www.oriflame.uz) saytida tegishli ma'lumotni joylashtirish orqali, shaxsan topshirish va shunga o'xshash boshqa yo'l orqali oldindan xabardor qilib, bekor qilinishi mumkin.

5.4. Xaridor oxirgi buyurtmadan so'ng Katalogning amal qilishini 34 davri mobaynida biror marta ham xarid qilmagan taqdirda, yoki Xaridorning arizasiga ko'ra shartnomaning amal qilish muddati tugatilgan hisoblanadi.

5.5. Xaridor Shartnomani tuzib, Sotuvchiga O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda maxfiylik sharti bilan Sotuvchi tomonidan foydalanishga va ularni qayta ishlash uchun Sotuvchi tomonidan uchinchi shaxslarga Xaridorning shaxsiy ma'lumotlarini berishga o'z roziligini bildiradi. Bunday foydalanish va/yoki berish faqat mazkur Shartnomani bajarish maqsadida, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish Siyosatida belgilangan tartib va shartlarda amalga oshirilishi mumkin.

Bunda Xaridor tarafidan mazkur Shartnomaning 5.1-bandiga muvofiq u tarafidan mazkur Shartnomani shartlarini qabul qilganligini tasdiqlovchi harakatlarni bajarilishi ham Tomonlar tarafidan Sotuvchiga uning shaxsiy ma'lumotlaridan foylanishga va berishga (shu jumladan transchegaraviy) yozma ruxsat berganligi sifatida qaraladi. Mazkur rozilik Shartnomani amal qilish muddati mobaynida va Shartnoma bekor qilingandan so'ng uch yil mobaynida amal qiladi. Xaridorning shaxsiy ma'lumotlari mazkur Badda sanab o'tilgan maqsadlarda uchinchi shaxslarga berilganda, Sotuvchi uchinchi shaxslar tomonidan xaridorning ma'lumotlaridan faqat mazkur Shartnomada belgilangan maqsadlarda foydalanilishini, shuningdek uchinchi shaxslar tomonidan ularga noqonuniy kirishni tegishli himoyasini ta'minlashni kafolatlaydi. Rozilikni chaqirilishi Xaridor tomonidan Sotuvchining manziliga yozma shaklda tegishli xabarnomani jo'natish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Sotuvchi shunday xabarnomani olgan paytdan boshlab 1 (Bir) ish kuni mobaynida Xaridorning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashni to'xtatishi shart.

5.6. Xaridor Shartnomaning shartlarini qabul qilib va rozi bo'lib, har qanday usulda, shu jumladan elektr aloqa tarmoqlari orqali, aynan telefon, faksimile, xarakatchan radiotelefon aloqasi, shuningdek internet tarmog'i orqali, bunday rozilikni olish zarurati O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan maqsadlar va holatlarda, Sotuvchini ma'lumotlarini, shu jumladan reklamali ma'lumotlarini olishga o'z roziligini beradi. Xaridor muvofiq yozma xabarnomani yuborish yo'li bilan Sotuvchi tomonidan tarqatiladigan reklamani olish imkoniyatiga o'zining rad javobini bildirish huquqiga ega.

5.7. Mazkur shartnoma tomonidan Tomonlar o'rtasidagi nizolarni sudga qadar (shikoyatli) shartli hal qilinishi nazarda tutilmagan. Kelishmovchiliklar yuzaga kelgan holatlarda Tomonlar imkon qadar ularni muzokaralar yo'li bilan hal qilishadi. Agar muzokaralar boshlangan paytdan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun mobaynida Tomonlar yagona qarorga kelishmasa, nizo O'zRning amaldagi qonunchiligiga muvofiq O'zRning fuqarolik ishlari bo'yicha tegishli sudida sud tartibida ko'rib chiqilishi zarur bo'ladi.

5.8. Sotuvchi Tovar xaridorga berilgan paytdan boshlab Xaridorda uchinchi shaxslar, vakolatli organlar va boshqalar oldida yuzaga keladigan majburiyatlar uchun javobgar emas.

5.9. Tomonlarning barcha boshqa munosabatlari O'zRning amaldagi qonunchiligi tomonidan tartibga solinadi. Mazkur Shartnoma va Umumiy qoidalar va shartlar, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish Siyosati o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelganida, mazkur Shartnomaning shartlari ustuvor kuchga ega. Mazkur Shartnomaning alohida qoidalarini, Umumiy qoidalar va shartlarini, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish Siyosatini O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga mos kelmasligi sababli haqiqiy emasligi ularning boshqa qoidalarini haqiqiy emasligiga olib kelmaydi.

5.10. Shartnoma rus va o'zbek tillarida tuzilgan. Shartnomaning matnlari o'rtasida kelishmovchiliklar vujudga kelganida rus tilidagi shartnoma ustuvor kuchga ega.

**6-modda. Sotuvchining rekvizitlari.**

"ORIFLAME" Xorijiy korxonada Mas'uliyati cheklangan jamiyat

"ORIFLAME" XK MChJ

Yuridik manzili: Toshkent shahri, 100 084, Yunusobod tumani, Amir Temur ko'chasi, 88a-uy (A.Temur va KXAY ko'chalarining kesishgan joyi)

28.02.2019 yildagi 693503-son bilan ro'yxatga olingan.

STIR 306192264

IFUT 47.75.0

To'lovchining QQS kodi 326100038138

Bank: "KDB Bank O'zbekiston" AJ

Bank STIRi: 202167236

(UZS) - h/r № 20214000601043857001 ichki № 000005055132UZS

Bank kodi (FAA): 00842

SWIFT kod: KODBUZ22

Bosh direktor

Gafarova Anife Xalilovna

## UMUMIY QOIDALAR VA SHARTLAR

Mazkur Umumiy qoidalar va shartlar, shuningdek ularda ko'rsatilgan boshqa (keyinchalik birgalikda - "**Qoidalar**" deb yuritiladi) hujjatlar Oriflame Xaridorlarining qoidalari, tamoyillari, huquqlari va majburiyatlarini o'rnatadi.

Oriflame mazkur Qoidalarni vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqish huquqini o'zida qoldiradi, bu haqda Xaridorlarga xabarnoma yuboriladi. Oxirgi yangilanishning sanasi bilan Qoidalarning oxirida tanishish mumkin. Mazkur qoidalarda ta'riflanganidek, Oriflame Xaridorlarni shu kabi o'zgarishlar borasida xabardor qilib boradi.

### 1. TA'RIFLAR

Mazkur Qoidalarda quyidagi ta'riflar qo'llaniladi:

- 1.1. **Oriflame katalogi, Katalog**<sup>1</sup>: Oriflame kompaniyasi tomonidan chop etiladigan qog'ozli yoki elektron nashr, u Oriflame Mahsulotlarining taklifiga ega;
- 1.2. **Katalogning amal qilish davri**: ushbu Oriflame Katalogida ko'rsatilgan taklif amal qiladigan, har bir Katalogning muqovasida ko'rsatilgan vaqt davri;
- 1.3. **Oriflame Mahsulotlari, Mahsulot, Mahsulotlar**: Oriflame tomonidan sotiladigan attorlik-kosmetik mahsulotlar, aksessuarlar va boshqa mahsulotlar;
- 1.4. **Oriflamening tovar belgilari**: Oriflame tomonidan sotiladigan Mahsulotlar yoki Mahsulotlar liniyasini shaxsiylashtirish uchun xizmat qiluvchi belgilanishlar;
- 1.5. **Hudud**: O'zbekiston Respublikasi;
- 1.6. **Shaxsiy ma'lumotlar**: Xaridorlar tomonidan Oriflame Xaridorlari sifatida ro'yxatdan o'tishda taqdim etilgan ma'lumot, shuningdek oxirgilar Oriflamega muntazam taqdim etishi mumkin bo'lgan, Xaridorlarga bevosita yoki bilvosita taalluqli bo'lgan har qanday qo'shimcha ma'lumot.
- 1.7. **Yukxati**: yukxati-hisob yoki har qanday boshqa hujjat, unga muvofiq Mahsulot Xaridorga beriladi, unda berilayotgan Mahsulotning ro'yxati, Mahsulot berilgan sana, xaridning o'zbek so'midagi umumiy qiymati, Xaridorning Qayd raqami va boshqa zarur rekvizitlar ko'rsatiladi.

**Sayt**: [www.oriflame.uz](http://www.oriflame.uz) manzil bo'yicha Oriflamening Internetdagi rasmiy sahifasi

### 2. RO'YXATGA OLISH

- 2.1. Saytda ro'yxatdan o'tish quyidagi manzilda amalga oshiriladi: [www.oriflame.uz](http://www.oriflame.uz).
- 2.2. Saytda ro'yxatdan o'tish buyurtma berish uchun majburiy hisoblanadi.
- 2.3. Ro'yxatdan o'tishda Xaridorlarga taqdim etilayotgan axborotning aniqligi va to'g'riligi uchun Oriflame javobgar bo'lmaydi.
- 2.4. Har qanday jismoniy shaxs Oriflame shunday shaxsning arizasini qabul qilib, unga Qayd raqamini bergandan so'ng, u Oriflame Xaridori sifatida ro'yxatga olinadi.
- 2.5. Ro'yxatga olingandan keyin:
  - Mazkur Qoidalariga muvofiq Xaridorga Oriflame Mahsulotlarini xarid qilish, shuningdek Oriflame taqdim etgan boshqa mulklardan foydalanish huquqi taqdim etiladi;
  - Xaridor mazkur Qoidalarga, shuningdek mazkur Qoidalarning ajralmas qismi bo'lgan, ushbu Qoidalarda eslatib o'tilgan har qanday hujjatlarning qoidalariga qat'iy rioya qilishi shart. Oriflame start to'plami - Xaridorni Oriflame bilan hamkorligini boshlashga yordam beradigan hujjatlar to'plami uchun to'lov hisoblanadigan qayd to'lovini undirishi mumkin - ularning summalari Xaridorga Mahsulotning birinchi buyurtmasi bilan birga yuborilgan birinchi yukxati-hisobda ko'rsatiladi.
- 2.6. Xaridor ro'yxatdan o'tishda Xaridor tomonidan ko'rsatilgan login va parolni uchinchi shaxslarga xabar qilmaslik majburiyatini oladi. Xaridorda uning logini va parolini xavfsizligiga yoki ular uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy ishlatilayotganligiga nisbatan shubha paydo bo'lsa, Xaridor shaxsiy kabinetidan tegishli elektron xabar yoki [www.oriflame.uz](http://www.oriflame.uz) manzili bo'yicha elektron xat yuborib, bu haqda darhol Oriflameni xabardor qilish majburiyatini oladi.

### 3. MAHSULOTNI XARID QILISH

#### A. BUYURTMANI JOYLASHTIRISH

- 3.1. Xaridor Oriflame saytida, katalogda va unga prays-varaqasida joylashtirilgan Mahsulotlarga buyurtma qilishi mumkin.
- 3.2. Buyurtma on-layn tarzda [www.oriflame.uz](http://www.oriflame.uz) saytida amalga oshirilgan bo'lishi kerak va quyidagi qadamlar bajarilgandagina joylashtirilgan hisoblanadi:
  - onlayn buyurtma qilinganida Xaridor "savatga qo'shish" opsiyasidan foydalanib, xarid qilishni istagan Mahsulotini tanladi. Shu bilan birga Xaridor buyurtma tasdiqlanguncha har qanday vaqtda mahsulotlar sonini o'zgartirib, savatdagi ma'lum mahsulotlarni yoki hammasini chiqarib tashlab, savatdagilarni qayta ko'rib chiqishi va o'zgartirishi mumkin;
  - Xaridor Oriflamega yetkazib berish uchun kerakli bo'lgan Shaxsiy ma'lumotlarini taqdim etadi va Oriflame ushbu shaxsiy ma'lumotlardan Oriflame Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish Siyosatida bayon etilgan maqsadlarda foylanishiga rozilik bildirdi;
  - Xaridor Mahsulotni yetkazib berish va to'lashning afzal usulini tanladi.
- 3.3. Xaridor tomonidan on-layn joylashtirilgan buyurtma mazkur buyurtma to'liq shakllangan va yuklangandan keyin o'zgartirilmaydi, bu haqda Xaridor muvofiq xabarnomani olgan.

- 3.4. Buyurtma qabul qilingandan keyin Oriflame Xaridorga elektron pochta orqali buyurtmani tasdig'ini jo'natadi.
- 3.5. Buyurtma qilingan Mahsulot bilan Xaridor yukxati-hisobni oladi, unda buyurtma qilingan Mahsulotlarning ro'yxati ko'rsatilgan bo'ladi. Shu qatorda, birinchi yukxati-hisobni olayotganda Xaridor unga yoki buyurtma olinganligini tasdiqlovchi har qanday boshqa hujjatga imzo qo'yishi kerak.
- 3.6. Onlayn buyurtmada quyidagilarni hisobga olish lozim:
- Mazkur Qoidalar va Oriflame Xaridori sifatida ro'yxatdan o'tish muolajasidan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng Xaridor uchun majburiy bo'lgan Shartnomaning mazmunini tashkil etuvchi boshqa hujjatlarning nushasi Xaridorga avtomatik tarzda jo'natilmaydi. Mazkur Qoidalarining 3.5-bandiga muvofiq Xaridor tomonidan birinchi buyurtma olinishida yukxat-hisobni yoki boshqa hujjatni imzolaniishi Xaridorning roziligini va u O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksini 369, 370 va 365-moddalariga muvofiq Shartnoma shartlarini so'zsiz qabul qilganligini bildiradi;
- 3.7. Xaridor rasmiylashtirilgan va to'langan Mahsulotlarni faqat mazkur Qoidalarining 4-bandida ta'riflangan muolaja bo'yicha bekor qilishi mumkin.
- 3.8. Kompaniyaning saytiga kirish ma'lum cheklangan davrlardan tashqari, Mahsulotlar buyurtmalarini sutkaning har qanday vaqtida onlayn joylashtirish mumkin.
- 3.9. Hamma Mahsulotlar ham har qanday vaqtda erishimli emas. Agar buyurtma joylashtirilgan vaqtda tovar omborda bo'lmasa, xaridor buyurtmani o'zgartirish yoki bekor qilishi uchun Xaridor tomonidan buyurtma qilish yakunlanguncha Oriflame uni xabardor qilish uchun barcha sayi-harakatlarini ishga soladi.
- 3.10. Texnik xizmat ko'rsatish yoki turli texnik sabablarga ko'ra Oriflame sayti vaqti-vaqti bilan cheklangan vaqt davomida erishimli bo'lmasligi mumkin. Oriflame shu kabi kirish mavjud emasligi uchun javobgarlikni olmaydi va Xaridorlar va boshqa shaxslarning shu bilan bog'liq shikoyatlarini qabul qilmaydi.

## B. NARXLAR VA TO'LOV

- 3.11. Mahsulotlarga bo'lgan narxlar buyurtmani joylashtirish vaqtida amal qiladi. Barcha narxlar o'zbek so'mida ko'rsatilgan va QQSni o'z ichiga oladi.
- 3.12. Oriflame narxlarni har qanday vaqtda va o'z xohishiga ko'ra o'zgartirish huquqini o'zida qoldiradi.
- 3.13. Narxlar yetkazib berish narxini va buyurtma rasmiylashtirilganda aniq ko'rsatilgan boshqa to'lov va yig'implarni o'z ichiga olmaydi. Yetkazib berish narxi Xaridor tomonidan tanlangan yetkazib berish usuliga qarab farq qilishi mumkin.
- 3.14. Oriflame vaqti-vaqti bilan chegirmalarni taqdim etishi mumkin. Xaridor har doim hisob-kitoblar borasidagi har qanday savol bilan Mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmatiga Oriflamening [www.oriflame.uz](http://www.oriflame.uz) saytida ko'rsatilgan telefonlar bo'yicha yoki [info@oriflame.uz](mailto:info@oriflame.uz) pochta orqali murojaat qilishi mumkin.
- 3.15. Mahsulot to'lovi Xaridor tomonidan to'lov terminallari, bank o'tkazmalari yoki Oriflame tomonidan o'rnatilgan va Xaridorga har qanday erishimli usulda yetkazilgan boshqa usulda: elektron pochta, SMS orqali, [www.oriflame.uz](http://www.oriflame.uz) Oriflame saytida tegishli axborotni joylashtirish yo'li va hokozalar orqali amalga oshiriladi. Bunda xizmatlarning mazkur turlarini yetkazib beruvchilari tomonidan majburiy tarzda Xaridor Tovarlarini to'lovini tasdiqlovchi hujjat beriladi (elektron chek, terminal cheki, bank o'tkazmasi to'g'risidagi kvitansiya, to'lov xaqidagi xabar va boshqalar)

## C. YETKAZIB BERISH VA TASODIFIY NOBUD BO'LISH XAVFINI O'TKAZISH

- 3.16. Buyurtma qilingan Mahsulot Xaridorga faqat O'zbekiston Respublikasi hududida yetkazib berilishi mumkin.
- 3.17. Xaridor buyurtmani yetkazib berish joyini buyurtma berish jarayonida tanlaydi.
- 3.18. Oriflame ishlov berish va buyurtmani Xaridorga qisqa muddatlarda, ammo Oriflame tomonidan buyurtma tasdiqlangandan so'ng 30 kundan kechikmasdan yetkazib berish majburiyatini oladi. Yetkazib berishda Oriflamega bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra kechikishlarda Oriflame javobgar hisoblanmaydi.
- 3.19. Mahsulotning tasodifiy nobud bo'lishi va Mahsulotga bo'lgan egalik huquqi mahsulot xaridor tomonidan olingan paytida Xaridorga o'tadi, bu yukxati-hisobini imzolash bilan tasdiqlanadi.
- 3.20. Xaridor tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar yoki to'liq bo'lmagan Shaxsiy ma'lumotlar taqdim etilishi natijasida buyurtma yetkazib berilmaganligi, noto'g'ri yoki o'z vaqtida yetkazib berilmaganligi uchun Oriflame javobgar bo'lmaydi.

## D. ORIFLAME MAHSULOTLARINING MUVOFIQLIGI

- 3.21. Oriflame Mahsulotlari Yevropa Ittifoqi va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqlarining, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik talablariga, shuningdek Oriflamening Axloq Kodeksiga muvofiq ishlab chiqarilishini Oriflame kafolatlaydi.

## 4. BUYURTMANI BEKOR QILISH HUQUQI

- 4.1. Oriflame Xaridor kompaniyasida qo'llaniladigan va mazkur Qoidalarining 4.3-bandida ko'rsatilgan mahsulotlarni qaytarish qoidalariga qat'iy rioya qiladi.
- 4.2. Buyurtmani olish paytida Xaridor yuklab tashish paytida shikastlanishi mumkin bo'lgan mahsulotlar yo'qilgiga ishonch hosil qilish uchun uning tarkibini tekshirib chiqishi lozim. Xaridor yoki Xaridor nomidan Mahsulotlarni olayotgan boshqa shaxs, shikoyatlarni taqdim qilish va shikastlanishlar/nuqsonlarni ta'riflash orqali Shikoyatlar bo'limini darhol xabardor qilishi kerak, shuningdek brak mahsulotni shunga o'xshashiga almashtirishga yoki tovar qiymatini qoplash bilan uni qaytarishiga bo'lgan istagini bildirishi lozim. Shikoyatlarni Oriflame Servis markazida taqdim etish, shuningdek quyidagi manzil bo'yicha Sotuvchining saytida onlayn tarzda joylashtirishi mumkin: [www.oriflame.uz](http://www.oriflame.uz).
- 4.3. Qaytarish va qoplashga bo'lgan huquq
- 4.3.1. Xaridor Sotuvchining [www.oriflame.uz](http://www.oriflame.uz) saytida rasmiylashtirgan Mahsulot buyurtmasini buyurtma to'liq shakllanib, yuklanib bo'lgunga qadar, bu xaqda Xaridor tegishli xabarnomani olgan, Xaridor sabablarni tushuntirmasdan va xarajatlarni qoplamasdan bekor qilishi mumkin

4.3.2. Yuqoridagi 4.3.1-bandda ko'rsatilgan hollarda buyurtmani bekor qilish uchun Xaridor [www.oriflame.uz](http://www.oriflame.uz) saytida buyurtmani bekor qilish funksiyasidan foydalanishi mumkin. Agar ko'rsatilgan saytda funktsiya erishimli bo'lmasa, unda buyurtmani bekor qilib bo'lmaydi.

4.3.3. Mahsulotni mazkur qoidalarning 4.3.1-bandida ta'riflangan qaytarilishida Xaridorga Mahsulot uchun to'langan qiymatning to'liq miqdori qoplanadi. Oriflame qiymatni qisqa muddatlarda, biroq har qanday holatda ham Xaridor tomonidan buyurtmani bekor qilish to'g'risidagi xabarnoma jo'natilganidan so'ng 5 kalendar kun mobaynida qoplab beradi. Oriflame Xaridorga Xaridorning arizasi bo'yicha oldindan to'lov hisobidan pulni qaytaradi.

## **5 ORIFLAME XARIDORINING MAJBURIYATLARI**

5.1. Xaridor Oriflamening tovar belgilari, uning firmali nomlanishi va logotipi Oriflame kompaniyasining shaxsiy mulki ekanligini tan oladi, va hech qanday tarzda ularni buzmaslikka roziligini beradi.

5.2. Xaridor amaldagi qonunchilikni, jumladan Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi qonunchilikni har qanday tarzda buzganligi sababli ko'rishi mumkin bo'lgan har qanday jarimalar, sarflar, yig'imlar va umuman har qanday xarajatlar uchun Oriflame hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

5.3. Hech qanday holatda Xaridor Oriflame nomidan axborot, reklama va/yoki har qanday boshqa xabarlarini tarqatish huquqiga ega emas.

## **6 ORIFLAME MAJBURIYATLARI**

6.1. Oriflame Xaridor tomonidan buyurtma qilingan har qanday Mahsulotni uning mavjudligi shartida yetkazib beradi.

6.2. Oriflame Mahsulot omborda mavjud emasligiga javobgar hisoblanmaydi.

## **7 HARAKATNI BEKOR QILISH**

7.1. Oriflame quyidagi vaziyatlarning har qansinisida mazkur qaror darhol kuchga kirishi bilan xabardor qilish orqali Xaridorning ishtirokini bekor qilishi mumkin:

- agar Xaridor Oriflame Mahsulotlari haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan qandaydir bayonotlarni e'lon qilsa yoki Oriflamega noto'g'ri bo'lgan va haqiqatga to'g'ri kelmaydigan o'zining Shaxsiy ma'lumotlarini taqdim etganda;

- Xaridor tomonidan Qoidalarning har qanday shartlari, shu jumladan Qoidalarda va boshqa holatlarda sanab o'tilgan hujjatlar buzilganda

8. Xaridor tomonidan Katalogning amal qilish muddatini 34 davri mobaynida buyurtmalar mavjud bo'lmagan holda, yoki Xaridorning arizasiga binoan Xaridorning ro'yxatdan o'tgan muddati tugaydi.

## **9 SHIKOYATLARNI KO'RIB CHIQISH**

Har qanday shikoyatlarni, savollarni va so'rovlarni Oriflamening [www.oriflame.uz](http://www.oriflame.uz) saytida ko'rsatilgan telefonlar bo'yicha yoki [info@oriflame.uz](mailto:info@oriflame.uz) elektron pochta orqali Mijozlarni qo'llab-quvvatlash markaziga yuborish mumkin

## **10 MAXFIYLIK**

10.1 Oriflame tomonidan taqdim etilgan yoki Xaridor mazkur Qoidalarni bajarganligi tufayli unga boshqa tarzda ma'lum bo'lgan har qanday tijorat (treninglarning materiallari, marketing rejasi, biznes-imkoniyatlari va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlar) yoki boshqa ma'lumotlar, agar ular Oriflamega yoki Oriflame kompaniyalari guruhi yoxud ishlab chiqarish jarayonlariga ish yuzasidan va tijorat operatsiyalariga taalluqli bo'lsa, va oxirgilar tomonidan Xaridorga yetkaziladigan ma'lumot sifatida Xaridorga taqdim etilmagan bo'lsa, so'zsiz maxfiy hisoblanadi (keyinchalik - "Maxfiy ma'lumotlar"), va Xaridor Oriflamening oldindan yozma ruxsatisiz uni oshkor qilishga yoki undan foydalanishga haqli emas.

10.2 Mazkur Qoidalarning 7-moddasiga binoan mazkur 10-moddada nazarda tutilgan maxfiylikni saqlab qolish majburiyati Xaridor va Oriflame o'rtasidagi o'zaro aloqa to'xtatilgandan keyin ham kuchda qoladi. Xaridor tomonidan uchinchi shaxslarga Maxfiy ma'lumotlarni berilishi, shu jumladan boshqa Xaridorlarning axborot bazasi haqidagi ma'lumotlarni berilishi, har qanday sabablarga ko'ra Xaridorni ishtiroki to'xtatilgandan keyin shu kabi ma'lumotlarni 3 (uch) yil mobaynida nashr qilinishi yoki boshqa tarzda oshkor qilinishi faqat Oriflamening yozma roziligi bilan amalga oshiriladi, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq bu kabi ma'lumotlarni olishga huquqi bo'lgan vakolatli davlat organlariga taqdim etilishi bundan mustasno.

10.3 Maxfiy ma'lumotlarni tarqatmaslikka bo'lgan cheklovlar umumerishimli ma'lumotlarga yoki Xaridor tomonidan Oriflame tomonidan taqdim etilishi natijasida emas, balki Oriflamedan olishdan oldin va keyin boshqa manbalardan olingan ma'lumotlarga taalluqli bo'lmaydi.

## **11 XATOLAR VA TUZATISHLAR**

Binobarin Oriflame ushbu saytda aniq va dolzarb ma'lumotlarni aks ettirish uchun oqilona harakat qilsada, Oriflame veb-saytida xatolikka yo'l qo'ylmasligini kafolatlamaydi. Ma'lumotlarni kiritishdagi xatolar yoki boshqa texnik muammolar ba'zan noaniq ma'lumotni aks ettirilishiga olib kelishi mumkin. Oriflame o'z saytida bo'lishi mumkin bo'lgan noaniqliklarni yoki xatolarni, shu jumladan narxlar va Mahsulotlar va xizmatlar mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'g'rilash huquqini o'zida qoldiradi, va shu bilan birga shu kabi xatolar uchun hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Oriflame shu bilan birga saytning tafsifi, funktsionalligi yoki mazmuniga har qanday vaqtda aniqliklar va/yoki o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida qoldiradi. Agar Xaridor uning fikricha noto'g'ri bo'lgan har qanday axborot yoki ta'rifni ko'rsa, bu holda u Mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilishi mumkin.

## **12 HAVOLALAR**

Oriflame boshqa veb-saytlarga yoki resurslarga havolalarni taqdim etishi mumkin. Oriflame tomonidan shu kabi havolalarni taqdim

etilishi u tomonidan ma'lumotlar shu havola orqali berilgan har qanday ma'lumotni, Mahsulotni yoki xizmatni ma'qullanishini nazarda tutmaydi. Oriflame Internetning har qanday havolasi faoliyatining mazmuni va natijalari uchun, jumladan mazkur sayt havola berayotgan boshqa veb-saytlar, yoki ushbu saytda erishimli bo'lganlar uchun hech qanday javobgar hisoblanmaydi. Oriflame ushbu sayt havola berayotgan veb-saytlarda aniqlangan har qanday xatolar yoki nomuvofiq materiallar to'g'risida xabar berishni iltimos qiladi.

### 13 UMUMIY QOIDALAR

13.1. Agar Qoidalarning qandaydir holati noqonuniy, haqiqiy emas yoki qandaydir sabablarga ko'ra qonuniy kuchga ega emas deb topilsa, bunday qoidalarning haqiqiy emasligi boshqa Qoidalarning haqiqiylikiga ta'sir qilmaydi.

13.2. Mazkur Qoidalarni yangilash va o'zgartirish huquqini Oriflame o'zida qoldiradi, bu haqda Xaridorlarga tegishli xabarnoma yuboriladi. Har qanday o'zgarish yoki yangilanish Oriflamening quyidagi saytida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi: [www.oriflame.uz](http://www.oriflame.uz).

13.3. Agar Xaridor o'zgartirishlar qo'llanilganidan keyin Mahsulotlarga buyurtma qilishni davom ettirsa, har qanday shu kabi o'zgartirish qabul qilingan deb hisoblanadi.

13.4. Oriflame Xaridorga ogohlantirishlar, xabarnomalar, elektron xabarlar va xatlar jo'natishi mumkin. Xaridor foydalanuvchining sozlamalariga kirib, har qanday vaqtda Oriflamedan marketing xabarlariga nisbatan o'z istaklarini yangilashi mumkin. Ushbu Qoidalarni qabul qilib, Xaridor Oriflame unga uning shartnomasi va/yoki buyurtmasiga nisbatan har qanday boshqa axborot/xabarni qog'oz ko'rinishida emas, doimiy tashuvchida jo'natishi bilan rozi bo'ladi (ya'ni, elektron pochta orqali yoki Xaridorga ma'lumotlarni yetarlicha uzoq vaqt mobaynida kelajakda foydalanish uchun erishimli bo'lgan joyda saqlash imkonini beruvchi, shuningdek Xaridorga ushbu ma'lumotlarni o'zgarimas ko'rinishida tiklash imkonini beruvchi har qanday boshqa vosita yordamida).

13.5. Mazkur Qoidalarga muvofiq jo'natilgan har qanday xabarnomalar uchun xabardor qilish muddati bunday xabarnoma pochta orqali buyurtma xat ko'rinishida jo'natilgan paytdan boshlanadi. Agar xabarnoma har qanday boshqa vositalar yordamida jo'natilsa, xabardor qilish muddati xabarnoma jo'natilgan kundan boshlanadi. Bu 4-bandga muvofiq qaytarish haqida Oriflamening xabardor qilishga taalluqli emas - muddat Xaridor Oriflamega Mahsulotni qaytarish borasidagi niyatini xabar qilgan kundan boshlanadi.

### 14 QAYTA ALOQA

14.1. Mazkur Qoidalarning mazmuni bo'yicha har qanday savollar vujudga kelganida Xaridor Oriflamega [www.oriflame.uz](http://www.oriflame.uz) elektron pochta orqali yoki Oriflamening [www.oriflame.uz](http://www.oriflame.uz) saytida ko'rsatilgan telefonlar bo'yicha murojaat qilishi mumkin.

14.2. Quyida Oriflame haqida qo'shimcha dolzarb ma'lumot bayon etilgan:

Nomi	"ORIFLAME" XK MChJ
Haqiqiy/Yuridik manzil	Toshkent shahri, 100 084, Yunusobod tumani, Amir Temur ko'chasi, 88a-uy (A.Temur va KXAY ko'chalarining kesishgan joyi)
Davlat reyestri	28.02.2019 yildagi 693503-son bilan ro'yxatga olingan.
Bank rekvizitlari	Bank: "KDB Bank O'zbekiston" AJ Bank STIRi: 202167236 (UZS) - h/r № 20214000601043857001 ichki № 000005055132UZS Bank kodi (FAA): 00842 SWIFT kod: KODBUZ22
QQS raqami	326100038138